

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘IIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlandi”
Rektor M. T. Xodjiyev
“29” 08 2024-yil
№ _____

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**O‘ZBEK ROMANCHILIGI
FANI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta‘lim yo‘nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Guliston-2024

Fanning nomi	O'zbek romanchiligi
Fan/modul kodi	O'R2606
Fan/modul turi	Tanlov
O'quv yili	2026/2027
Fan semestri	6
Ta'lim tili/turi	O'zbek/kunduzgi
Fanga ajratilgan soat/kredit	180/6
Auditoriya soat/kredit	72
Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat/kredit	108

I. FANNING MAZMUNI

Fanni maqsadi: Mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad – talabalarga milliy roman janri xususiyatlarini va tarixiy taraqqiyotini o'rgatish. O'zbek adabiyotida yaratilgan romanlarning o'ziga xosliklarni ochib berish hamda badiiy tafakkurdagi yangilanishning romanchilik taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash. Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda mavjud an'analarning ta'siri milliy romanchiligimizda aks etishini hamda jahon adabiyotidagi romanchilik maktablarining ta'siri bo'yicha ma'lumotlar berish

Fanning vazifasi:

- o'zbek adabiyotidagi roman janri genezisiga doir kuzatishlarni yangi ilmiy qarashlar bilan boyitish va roman janrida paydo bo'layotgan yangi xususiyatlarni belgilash;
- roman poetikasining voqelikni badiiy aks ettirishdagi o'ziga xosligini epik tasvir va romannavis obrazi bilan aloqadorlikda tadqiq etish;
- zamonaviy mavzudagi romanlar tabiati va uslubiy xususiyatlarini g'oya va obrazning ajralmas birligida tadqiq etish hamda inson ruhiyatini aks ettirishning o'ziga xosliklarini ochib berish;
- tarixiy romanlarning spetsifik xususiyatlarini belgilash, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima mutanosibligini ko'rsatib berish;
- istiqloq davri o'zbek romanchiligidagi muammo hamda g'oyalarning milliy xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlarga mushtarakligini aniqlash.

II. ASOSIY NAZARIY QISM

(Ma'ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta'lim mavzulari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

№	Modul nomi	Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan mavzular	Amaliy mashg'ulot bo'yicha mavzulari	Seminar mashg'ulot bo'yicha mavzulari	Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari
1	O'zbek romanchiligining tarixiy taraqqiyoti	Xalq og'zaki ijodidagi va mumtoz adabiyotdagi mavjud an'analarning ta'siri. O'zbek romanchiligining vujudga kelishidagi yetakchi tamoyillar va uning sabablarini o'rganish hamda ular asosida milliy romanlarning yuzaga kelishi. Jahon adabiyotidagi romanchilik maktablarining ta'siri. Ilk o'zbek romanchiligining shakllanish jarayoni va taraqqiyotini o'rganishning ahamiyati. Roman atamasi.	"O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarining nazariy asosi.	O'zbek romanchiligida urush davri voqeligini aks etishi. O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari tahlili	Roman tushunchasi va uning o'rganilishi

	Roman janri xususiyatlari	Roman atamasi. Roman janri mohiyati. Adabiy tanqidiy qarashlar va jahon adabiyotida romonchilikning shakllanishi. Roman janri xususiyatlari	“Kecha va kunduz”ning o‘zbek romanchiligidagi o‘rni.	S.Ahmadning “Ufq” trilogiyasida badiiy mahorat va uslub masalasi.	Jahon dadabiyoti va milliy romanchilik.
2	Jahon romanchilik maktablarining milliy romannavisligim izga ta’siri.	Jahon romanchilik maktablari va ularning milliy romannavisligimizga ta’siri masalasi. Yevropadag ilk romanchilik maktablari haqida ma’lumot. XX asr Yevropa romanchiligi. XX asr Sharq romanchiligi haqida ma’lumot. Jahon romanchiligi va o‘zbek romannavislari ijodidagi o‘xshash jihatlar.	Milliy romanchilikda psixologik romanlarning o‘rni. O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani.	O‘zbek romanchiligida turkumlilik masalasi. M.Alining “Ulug‘ saltanat” romani tahlili.	Roman nazariyasi.
3	Milliy romanchilikda Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon ijodining o‘rni	Abdulla Qodiriy milliy romanchilikka tamal toshini qo‘ygan birinchi romannavis. Yozuvchining ikki buyuk asari - “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari haqida. Qodiriy va jahon romanchilik maktabi.	30-40-yillar romanlariga xos umumiylik masalasi. Abdulla Qahhor romanchiligi va “Sarob” haqidagi adabiy tanqidiy qarashlar.	Mustaqillik davri romanchiligida tarixiy shaxs talqini masalasi. I.Sultonning “Navoiy” va A.Dilmurodning “Mahmud Tarobiy” romanlari tahlili.	O‘zbek adabiyotida roman janrining o‘rganilishi masalasi
4	O‘zbek romanchiligida yetakchi tamoyillar	Hozirgi o‘zbek romanchilikdagi yetakchi tamoyillar. O‘zbek romanchiligida milliy an’ana talqini. Xalq og‘zaki ijodidagi va mumtoz adabiyotdagi mavjud an’analarning o‘zbek romanchiligiga ta’siri. Qahramonlar ruhiyati tasvirida mahorat va uslub masalasi.	Oybekning “Navoiy”, “Qutlug‘ qon” romanlari va yozuvchi mahorati.	Modernizm va o‘zbek romanchiligi. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida noan’anaviy talqin.	Romanda badiiylik mezoni va yozuvchi mahorati.
5	Milliy romanchilikda psixologik romanlarning o‘rni	Badiiy psixologizm muammosining o‘zbek adabiyotida o‘rganilishi. Tahlil va talqin xususiyatlari. Psixologizm va adabiy tanqid. Psixologizm prinsiplari. Psixologik tahlil va psixologik tasvir. O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida psixologik tasvir	Romanchilik taraqqiyotida inson xarakterini yaratish an’analari. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani.	Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida badiiy g‘oya va obrazlilik masalasi U.Hamdanning “Muvozanat”, “Isyon va itoat” romanlari tahlili.	O‘zbek milliy romanchiligida tarixiy mavzuning ishlanishi
6	30-40-yillar romanchiligiga xos xususiyatlar	30-40-yillar romanchiligining badiiy tahlili. Davr romanchiligida hayot ziddiyatlari. Shaxs, jamiyat, obraz. Abdulla Qahhor romanchiligi. “Sarob”. Adabiy tanqidiy qarashlar. Oybekning “Navoiy”, “Ulug‘ yo‘l”, Shuhratning “Oltin zanglamas” kabi romanlari haqida. Ramonda hayot haqiqatini aks ettirish. Qahramon. Xarakter. Tip. Badiiylik mezonlari.	O‘zbek milliy romanchiligida tarixiy mavzuning ishlanishi. “Ko‘hna dunyo”, “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar davoni” romanlari.	O‘zbek romanchiligida shakl ma mazmun mutanosibligi.	Romanchilik haqida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar.
7	Romanlarda urush davri voqeligini aks	Urush davri voqeligini aks ettirishda davr ruhi va kolorit tasviri. Romanlarda qahramon	Zamonaviy mavzudagi romanlar badiiyati	Adabiy tanqid va romanchilik.	Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarning romanlarda aks

	ettirish	masalasi. Roman epizodlarini aks ettirishda makon va zamon tasvirining mutanosibli. Romanlarda badiiy detal masalasi. Urush davri voqyeligining aks ettirish. Bu davrda vujudga kelgan nasr an'analari. S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasi, O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari tahlili.	va yetakchi qahramonlarning asar tuzilishida tutgan o'rni. P.Qodirovning "Uch ildiz", "Qora ko'zlar", "Olmas kamar" romanlari.		etishi.
8	O'zbek milliy romanchiligid a tarixiy mavzuning ishlanishi	Tarixiy va zamonaviy mavzudagi romanlar badiiyati va etakchi qahramonlarning asar tuzilishida tutgan o'rni. Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy shaxs obrazini yaratish. Tarixiy voqyelik. Tarixiy shaxs. Badiiy to'qima. Tarixni aks ettirish. Tarixiy shaxslar va tarixiy voqyelikka haqqoniy yondashish. "Pahlavon Mahammad" romanida buyuk tarixiy shaxs obrazi. M.Alining "Sarbadorlar" romanida tarix va tarixiy shaxslar, badiiy talqin. "Ulug' saltanat" romanida tarixiy shaxslar obrazini yaratish.	Odil Yoqubovning "Diyonat", "Oq qushlar oppoq qushlar" romanlarida shaxs, jamiyat, tabiat o'rtasidagi dialektik birliklar talqini.	Romanchilikda uslubiy izlanishlar. "Otamdan qolgan dalalar" romani.	Ayol romannavislar va ular uslubidagi o'ziga xoslik.
9	O'zbek milliy romanchiligid a zamonaviy mavzuning ishlanishi	P.Qodirovning zamonaviy romanlarida hayot ziddiyatlarining talqini, qishloq hayotini tavsiri. "Uch ildiz", "Qora ko'zlar", "Olmas kamar" romanlarida obrazlar tizmi. Yozuvchi uslubi va badiiy mahorati. Adibning tarixiy romanchilik taraqqiyotidagi hissasi. Odil Yoqubov - iste'dodli romannavis. Adibning zamonaviy romanlari. "Diyonat", "Oq qushlar oppoq qushlar" kabi romanlarida obraz yaratish. Shaxs, jamiyat, tabiat o'rtasidagi dialektik birliklar talqini.	Mustaqillik davrida yaratilgan romanlarda shakl va mazmun birligi	Romanlarda shakliy-kompozitsion ixchamlik U.Hamdani roman "Namatak" romani tahlili.	Mustaqillik yillar romanchiligida noan'anaviy talqinlar, uslubiy o'zgarishlar.
10	O'zbek modern romanchiligi	Romanchilikda noan'anaviy talqinlar, uslubiy o'zgarishlar. Modernizm tushunchasi. Qahramon yaratish tamoyillari. Jahon adabiyotidagi an'analar va o'zbek romanchiligidagi o'zgarishlar. Tahlil va talqinlar. Badiiy asar va adabiy tanqidiy qarashlar. Badiiy obraz yaratishda noan'anaviy talqin. Romanchilik va adabiy tanqid. T.Rustamning "Kapalaklar o'yini", Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor", Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanlari. Romanchilik va adabiy tanqid.	Isajon Sulton romanlarida bosh qahramon masalasi	Mutaqillik davri romanlarida davr qahramoni masalasi. "Begonalar yurmas bu yerda" (Luqmon Bo'rixon)	Romanlarda qahramon yaratish tamoyillari.
11	Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi	Mustaqillik davrida yaratilgan romanlarning o'ziga xos xususiyatlari. Romanchilikda	Xurshid Do'stmuhammad romanlari	"Jazimadagi odamlar" (Luqmon)	"O'tkan kunlar" va "Mehrobdan

		noan'anaviy talqinlar, uslubiy o'zgarishlar. Qahramon yaratish tamoyillari. Badiiy asar va adabiy tanqidiy qarashlar. Badiiy obraz yaratishda noan'anaviy talqin.	va no'anaviy talqin	Bo'rixon)	chayon" romanlari tahlili.
12	Milliy romanchilik va adabiy tanqid	Badiiy obraz yaratishda noan'anaviy talqin. Omon Muxtorning "Ko'zgi oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", A.Dilmurodning "Fono dashtidagi qush", U.Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat" romanlari. O'zbek adabiyotida fantastik romanlar. Milliy romanchilik va adabiy tanqid.	Omon Muxtorning "Ko'zgi oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" romanlari	"Go'ro'g'li yohud hayot suvi" (Nazar Eshonqul)	Mustaqillik davri o'zbek romanchiligida badiiy g'oya va obrazlilik masalasi.

III. Fanni o'qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- O'zbek romanchiligi fani bo'yicha bakalavr talaba roman janrining genezisi bilan bog'liq muammolar, zamonaviy milliy realistlik roman vujudga kelishida o'zbek mumtoz romannavisligi hamda jahon adabiyotining o'rni va ahamiyatini aniqlashi kerak. Shuningdek, mumtoz romanlarning o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy romanchilikning vujudga kelish sabablari, adabiy ta'sir, ijodkor shaxsi masalasini o'rganishi lozim (**bilim**);

- ushbu fan doirasida talaba romanlardagi konkret asarda janr parametrlarini tayin etish bilan yozuvchi g'oyaviy-estetik ideallarining uyg'unligi, kompozitsiya – shakl va mazmun birligi namunasi sifatida talqin eta bilishi kerak. Adabiyotshunoslik nazariyasining tarix, falsafa, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, adabiyotshunoslik ilmi va adabiy jarayondagi nazariy masalalarni, badiiy asarning shakl va mazmuniga oid nazariy qarashlarni, lirikaning poetik mohiyatini, badiiy asar tili, poetik nutq va uslubiy individuallik masalalarini bilishi va ulardan foydalana olishi lozim (**ko'nikma**);

- shuningdek, nazariy bilim olgan bakalavr talaba adabiy manbalarga nazariy baho bera olish, badiiy asarni filologik nuqtai nazardan talqin va tahlil etish, badiiy adabiyot va san'atning mazmun-mohiyati bo'yicha adabiy suhbatlar o'tkazish, mavjud adabiy manbalar asosida ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalar chiqara olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (**malaka**).

IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

V. Kreditlarni olish uchun qo'yiladigan talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

VI. Asosiy adabiyotlar:

1. Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969.
2. Н.Каримов. О‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – Т.: 2008.
3. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Фан ва технология, 2006.
4. Павловетс.М.Г. Современный литературный процесс. – Москва, 2020.
5. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Т.: G‘.G‘. nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

Qo‘shimcha adabiyotlar:


1. Муродов Ғ. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2005.
2. Назаров Ў. Романда бадиий хронотопнинг ўзига хослиги. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014.
3. Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона, 2015.
4. Тўраев Д. Ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001.
5. Тўраева Б. Замонавий романларда хронотоп поэтикаси. Монография. – Тошкент: Effect-D, 2022
6. Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.

Axborot manbalari

1. <http://natlib.uz> – A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> - O‘zbekiston Milliy ensiklopediya
3. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> - O‘zbekiston milliy ta’lim portal
5. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi

Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma’sul:

D.To‘rayeva – Guliston davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) 

Taqrizchilar:

I.Yoqubov – A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori
Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori